



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljurnal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 3

Published: 07.03.2025
<https://universaljurnal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF

SASSIQ KOVRAK (FERULA FOETIDA) QATRONINING KIMYOVIY TARKIBI VA DORIVOR XUSUSIYATLARI

Parpiboyeva Umidaxon Rustamjon qizi., Abdugapparov Farxod Sultonaxmadovich

Andijon davlat universiteti

Uzbekistan

parpiboyevaumida316@gamil.com

Annotatsiya. Maqolada Sassiqlik kovrak (Ferula foetida) o'simligining ildizlari va lateksi (sutli sharbati) asosan tibbiyotda qo'llanishi va uning noyob kimyoviy tarkibi hamda dorivor xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ushbu maqolada uning ildizlaridan olingan yelim va ekstraktlar ko'plab kasalliklarni davolashda samarali ekanligi to'g'risida ham so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kovrak ildizi, biologik faol birikmalar, flavonoidlar, teri kasalliklari, vitaminlar.

Аннотация: В статье приведена информация о медицинском применении корней и латекса (млечного сока) растения *Ferula foetida*, а также о его уникальном химическом составе и лечебных свойствах. Кроме того, в статье рассматривается эффективность клея и экстрактов, полученных из его корней, в лечении различных заболеваний.

Ключевые слова: Корень ферулы вонючего, биологические активные вещества, кожные заболевания, флавоноиды, витамины.

Abstract: The article provides information about the medicinal use of the roots and latex (milky sap) of the plant *Ferula foetida*, as well as its unique chemical composition and therapeutic properties.

Additionally, the article discusses the effectiveness of adhesives and extracts derived from its roots in treating various diseases.

Keywords: Kovrak root, biologically active compounds, flavonoids, skin diseases, vitamins.

Language: Uzbek

Citation: Parpiboyeva , U., & Abdugapparov , F. (2025). CHEMICAL COMPOSITION AND MEDICINAL PROPERTIES OF FERULA FOETIDA RESIN. Universal International Scientific Journal, 2(3), 31–35. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1463>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15024113>

Kovrak ko‘p yillik, bo‘yi bir metr atrofidagi dorivor o‘simlik. Respublikamizning Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari, Qoraqalpog‘iston dashtlari va yalangliklarida, qumli cho‘llarda hamda sho‘r tuproqli yerlarda o‘sadi [1].


O‘simlik mart-aprel oylarida gullaydi, mevasi aprel-mayda pishadi. Poyasi tik o‘sovchi, yo‘g‘on, ichi kovak, yuqori qismi shoxlangan. Ildizoldi barglari bandli, uch bo‘lakka ajralgan. Barg bo‘laklari cho‘zinchoq yoki lantsetsimon. Gullari och-sariq, murakkab soyabonga to‘plangan. Mevasi ikki bo‘lakli pista. Ildizidan yelim (smola) olinadi [2].



1-rasm. Kovrak o‘simligi


Kovrak o‘simligi tarkibida turli vitaminlar, uglevodlar, uglevodorodlar, terpenoidlar, saponinlar, karotinoidlar, murakkab efirlar, alkaloidlar, glikozidlar, fitosterinlar, organik kislotalar, aldegidlar va fenol birikmalar, ligninlar kabi juda ko‘plab organik birikmalarning vakillari kiradi. Ushbu birikmalar esa inson salomatligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi [3]. Uning ildizi smolasidan asarezen, farnesiferol, umbelliferon, seskviterpen (asafoetida), seskviterpenovy kumin (asimaphoetidiol, fanesiferol C, 4-gidroksikumarin foetid), kafe kislotasi

asosiy tarkibiy qismlari va miqdorlari quyidagicha keltirilgan: Asosiy kimyoviy tarkibi: diallilsulfid (20-30%) – tabiiy antibakterial va antiseptik ta’sirga ega bo‘lib, organizmni zararli mikroorganizmlardan himoya qiladi [4].



Diallil sulfid

Ferul kislotasi (5-10%) – kuchli antioksidant bo‘lib, teri hujayralarini yoshartirish va tanadagi yallig‘lanish jarayonlarini kamaytirishga yordam beradi.



Ferul kislota

Flavonoidlar (0,1-0,3%) – hujayralarni himoya qiluvchi tabiiy antioksidantlar bo‘lib, organizmdagi erkin radikallarni neytrallashtirishga yordam beradi. Ular yallig‘lanishga qarshi ta’sir ko‘rsatadi va yurak faoliyatini qo‘llab-

quvvatlaydi. Taninlar (3-5%) – organizmni mustahkamlovchi va yallig‘lanish jarayonlarini kamaytiruvchi tabiiy birikmalar bo‘lib, ovqat hazm qilish tizimi uchun foydalidir [5].

Bu o‘simlikda bunday keng spektrdagi tabiiy birikmalarning mavjudligi uning shifobaxshlik xususiyatini belgilaydi. Ushbu o‘simlikdan zamonaviy tibbiyotda va xalq tabobatida alternativ vosita sifatida keng foydalanib kelinadi [6].

1-jadval.

No	Nomlanishi	100 gr miqdori%
1	Diallil sulfid	20-30 %
2	Ferul kislota	5-10%
3	Kumarin	1-3%
4	Efir moylari	10-15%
5	Flavanoidlar	01-03%
6	Taninlar	3-5%

Jumladan, buyuk sharq mutafakkiri Abu Ali Ibn Sino kovrak o‘simligini, shu jumladan uning turli xil ko‘rinishlarini ham shifobaxsh vosita sifatida keng qo‘llagan. Kovrakning foydasi juda ham ko‘p bo‘lib, u tibbiyotda bebaho sanaladi. Qadimda odamlar eng ko‘p uning bazi foydali tomonlari haqida yaxshi bilishgan, qolgan foydasi haqida esa deyarli hech qanday ma'lumot yo‘q. Sassi

kovrak shilimshiq chiqadigan balg'am tashlatadigan ta'sirga ega ko'krak qafasini tozalab ovozni tiniqlashtiradi, uni suvda eritib ichsa xirillagan ovoz ochiladi. Bundan tashqari u surunkali yo'tal va xronik ovoz xirillashishga qarshi yordam beradi. Zaharga qarshi dori kovrak davo hisoblashadi. Kovrakni zahar tasiriga qarshi himoya sifatida ichish mumkin. Ushbu o'simlik jigar xastaliklarida, xususan sariq kasalini davolashda foydalanilgan. Elimini (kovrakning boshqa turlarini ham) jigar (sariq kasali), me'da, buyrak, taloq kasalliklarida hamda bachadondan qon ketishini to'xtatuvchi, ishtaha ochuvchi, siydik haydovchi, bo'g'imlar og'rig'ini qoldiruvchi vosita sifatida ishlatgan [7].

Xalq tabobatida sassiq kovrak ildizi yelimidan tomir tortishishi, o'pka sili, ko'kyo'tal, tish og'rig'i, asab dardlariga qarshi, gijja haydovchi, quvvat kirituvchi, balg'am ko'chiruvchi dori sifatida qo'llaniladi. Yara va chipqonlarga ham qo'yiladi [8].

Ilmiy tibbiyotda dorivor preparatlari (nastoyka, emulsiya, habdorilar) astma, tomir tortishishi va asab dardlarida ishlatiladi. Shu bilan birga, me'da, buyrak va taloq muammolarida ham yaxshi samara bergan. Kovrakning muhim xususiyatlaridan biri – bachadondan qon ketishini to'xtatish va yallig'lanish jarayonlarini pasaytirishda muhim sanaladi [9].

Xulosa

Sassiq kovrak kimyoviy tarkibi ko'plab faol komponentlarni o'z ichiga oladi va ular dorivor o'simlikka xos davolovchi xususiyatlarni beradi. Ushbu o'simlik o'zining boy kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari bilan zamonaviy tibbiyotda va xalq tabobatida keng qo'llanilib kelinmoqda. U turli kasalliklarni davolash va oldini olish uchun samarali tabiiy vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "Dorivor

o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi PQ-251-son qarori)

2. B.Yo.To'xtayev, T.X.Mahkamov, A.To'laganov, A.V.Mahmudov «Dorivor va ozuqabop o'simliklarni plantatsiyalarini tashkil etish va xomashyosini tayyorlash bo'yicha metodik qo'llanma», Toshkent, 2015.

3. Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке», ноябрь, 2023 г., № 15(100), часть 2, с.1035-1036.

4. <https://www.ozon.ru> › club › article › kak-vyrastit-rozmarin.

5. <http://www.sort-semena.ru> › vegetech › rozmarin.

6. <https://indoor-plants.org> › katalog-rastenij › rosmarinus.